# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 44 449,2 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 112,8 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 25 269,7 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 14 705,6 ming so‘mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 58,9 foizi viloyatning 5 ta hududi, jumladan, Olmaliq shahri (32,3 %), Bekobod shahri (8,1 %), Ohangaron tumani (7,7 %), Chirchiq shahri (5,5 %) va Zangiota tumani (5,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi** *(mlrd. so‘m)*



**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar oʻsish surʼatlari** *(%da)*




Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi. Jumladan, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Olmaliq shahrida – 137,9 %, Oʻrta Chirchiq tumanida – 137,8 %, Angren shahrida – 136,1 %, Zangiota tumanida – 103,0 % yuqori boʻldi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida**
**aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**
*(ming so'mda, %da)*




Hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko'rsatkichlari Olmaliq shahrida – 99 979,0 ming so'm, Bekobod shahrida – 34 981,0 ming so'm, Ohangaron tumanida – 31 207,0 ming so'm, Nurafshon shahrida – 30 217,0 ming so'mni tashkil etdi.

Aksincha, past ko'rsatkich Oqqo'rg'on tumanida – 2 842,0 ming so'mni va Parkent tumanida – 2 252,0 ming so'mni tashkil etdi.

## Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

| | *mlrd. so‘m* | *o‘sish sur’ati, %* | *yakunga nisbatan %* |
|---|---|---|---|
| **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar** | **44 449,2** | **112,8** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Markazlashgan investitsiyalar:** | **4577,3** | **73,7** | **10,3** |
| budjet mablag‘lari | 1747,1 | 76,3 | 3,9 |
| O‘zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi | 169,2 | 90,0 | 0,4 |
| Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari | 904,1 | 43,4 | 2,0 |
| Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari | 1756,9 | 106,4 | 4,0 |
| **Markazlashmagan investitsiyalar** | **39871,9** | **120,1** | **89,7** |
| korxonalarning o‘z mablag‘lari | 10889,6 | 71,6 | 24,5 |
| tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari | 2167,3 | 53,4 | 4,8 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 6080,4 | 135,5 | 13,7 |
| aholi mablag‘lari | 3982,2 | 127,2 | 9,0 |
| kafolatlanmagan xorijiy kreditlar | 16752,4 | 2,7 m. | 37,7 |

2023- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga koʻra, eng yuqori koʻrsatkich (jami investitsiyalarning 37,7 %i) kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga (16 752,4 mlrd. soʻm) toʻgʻri keldi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari**







Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning oʻzlashtirilgan hajmi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 6 080,4 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 135,5 %ni tashkil qildi. Bunda, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish boʻyicha yuqori koʻrsatkich Ohangaron (1 790,1 mlrd. soʻm) va Angren shaharlariga (657,9 mlrd. soʻm) toʻgʻri keldi.

Aksincha, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish boʻyicha past natijalar Piskent tumani (17,5 mlrd. soʻm) va Parkent tumanlarida (3,3 mlrd. soʻm) kuzatildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar

*(mlrd. so‘m)*

| | Jami xorijiy investitsiya va kreditlar | shu jumladan: | | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya | Reinvestitsiya | Kafolatlanmagan kreditlar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Investitsiya | Kredit | | | |
| **Viloyat bo‘yicha** | **25 269,7** | **6 760,4** | **18 509,3** | **6 080,4** | **180,4** | **16 752,4** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | 576,9 | 227,1 | 349,8 | 221,2 | | 291,8 |
| Olmaliq | 10 942,6 | 82,3 | 10 860,3 | 82,3 | | 10 857,2 |
| Angren | 1 106,3 | 763,9 | 342,4 | 657,9 | | 342,4 |
| Bekobod | 2 079,4 | 179,1 | 1 900,3 | 179,1 | | 1 900,3 |
| Ohangaron | 315,5 | 240,7 | 74,8 | 217,0 | 151,7 | 74,8 |
| Chirchiq | 1 127,2 | 946,8 | 180,4 | 571,0 | | 10,1 |
| Yangiyo‘l | 161,8 | 51,0 | 110,8 | 51,0 | | 54,9 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 187,8 | | 187,8 | | | 187,8 |
| Ohangaron | 1 790,1 | 1 790,1 | | 1 790,1 | | |
| Bekobod | | | | | | |
| Bo‘stonliq | 446,1 | 85,7 | 360,4 | 85,7 | | 91,2 |
| Bo‘ka | 268,8 | 97,6 | 171,2 | 97,6 | | 171,2 |
| Quyi Chirchiq | 1 199,3 | 228,5 | 970,8 | 228,6 | | 723,6 |
| Zangiota | 1 200,3 | 321,2 | 879,1 | 321,1 | | 571,2 |
| Yuqori Chirchq | 1 129,4 | 968,0 | 161,4 | 968,0 | | 161,4 |
| Qibray | 747,6 | 258,9 | 488,7 | 90,3 | 8,4 | 193,9 |
| Parkent | 3,3 | 3,3 | | 3,3 | | |
| Piskent | 160,3 | 17,5 | 142,8 | 17,5 | | 142,8 |
| O‘rta Chirchiq | 549,1 | 102,4 | 446,7 | 102,4 | | 446,7 |
| Chinoz | 165,9 | 26,8 | 139,1 | 26,8 | | 139,1 |
| Yangiyo‘l | 930,3 | 312,7 | 617,6 | 312,7 | 20,3 | 267,1 |
| Toshkent | 181,7 | 56,8 | 124,9 | 56,8 | | 124,9 |

## 2023- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

| | Jami mlrd. so‘m | foizda | Davlat | foizda | Nodavlat | foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami, mlrd. so‘m** | **44 449,2** | **100** | **3 024,8** | **6,8** | **41 424,4** | **93,2** |
| *shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan %da* | | | | | | |
| qurilish-montaj ishlari | 21 470,3 | 48,3 | 1 787,8 | 4,0 | 19 682,5 | 44,3 |
| mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar | 19 604,9 | 44,1 | 1 009,9 | 2,3 | 18 595,0 | 41,8 |
| boshqa harajatlar | 3 374,0 | 7,6 | 227,1 | 0,5 | 3 146,9 | 7,1 |

2023- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 48,3 %ini qurilish-montaj ishlari tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*

*(mlrd. so‘m)*

| | yanvar-dekabr | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 2023- y. | Umumiy hajmga nisbatan %da | 2022- y. | Umumiy hajmga nisbatan %da |
| **Jami:** | **44 449,2** | **100,0** | **35 767,7** | **100,0** |
| *shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha* | | | | |
| qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3 156,0 | 7,1 | 1 525,1 | 4,3 |

| | *yanvar-dekabr* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *2023- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* | *2022- y.* | *Umumiy hajmga nisbatan %da* |
| tog'-kon sanoati | 13 786,4 | 31,0 | 9 163,4 | 25,6 |
| qayta ishlash sanoati | 13 489,6 | 30,3 | 8 634,6 | 24,1 |
| elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 2 003,9 | 4,5 | 1 951,4 | 5,5 |
| suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish | 1 967,4 | 4,4 | 1 265,2 | 3,5 |
| qurilish | 1 267,3 | 2,9 | 660,3 | 1,8 |
| ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 273,6 | 0,6 | 777,4 | 2,2 |
| tashish va saqlash | 892,8 | 2,0 | 1 075,1 | 3,0 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 166,2 | 0,4 | 237,8 | 0,7 |
| aloqa va axborotlashtirish | 687,8 | 1,5 | 353,9 | 1,0 |
| moliya va sug'urta faoliyati | 53,3 | 0,1 | 76,5 | 0,2 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq ishlar | 30,4 | 0,1 | 95,6 | 0,3 |
| malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat | 353,9 | 0,8 | 793,6 | 2,2 |
| ma'muriy va qo'shimcha xizmatlar | 327,6 | 0,7 | 690,6 | 1,9 |
| davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta'minot | 456,9 | 1,0 | 655,5 | 1,8 |
| ta'lim | 452,3 | 1,0 | 874,1 | 2,4 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 306,6 | 0,7 | 3 089,5 | 8,6 |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 625,9 | 1,4 | 555,4 | 1,6 |
| uy-joy qurilishi | 3 867,2 | 8,7 | 3 031,7 | 8,6 |
| boshqa faoliyat turlari | 284,1 | 0,8 | 261,0 | 0,7 |

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**
*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 13 489,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 30,3 %) tashkil etdi. Tog'-kon sanoatida – 13 786,4 mlrd. so'm (31,0 %), uy-joy qurilishida – 3 867,2 mlrd. so'm (8,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3 156,0 mlrd. so'm (7,1 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta'minotida – 456,9 mlrd. so'm (1,0 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 625,9 mlrd. so'm (1,4 %), tashish va saqlashda – 892,8 mlrd. so'm (2,0 %), suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishda – 1 967,4 mlrd. so'm (4,4 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 353,9 mlrd. so'm (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 306,6 mlrd. so'm (0,7 %), ta'limda – 452,3 mlrd. so'm (1,0 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 166,2 mlrd. so'm (0,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

## Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi

2023- yil yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1 852,3 ming kv.m. bo‘lgan 7 416 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 1 473,2 ming kv.m. bo‘lgan 5 596 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2023- yil yanvar-dekabr oylarida 14 323,1 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,2 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 304,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 14 018,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 2,1 % va 97,9 % ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti

*(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*



**Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati**
*(2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %da )*




Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Parkent tumani (159,3 %.), Oqqo'rg'on (121,4 %) va Piskent (119,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich Ohangaron tumani (100,6 %) va Yangiyo'l shahriga (100,5 %) to'g'ri keldi.